

**MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA AQLI ZAIF BOLALAR SO‘Z
XOTIRASINING RIVOJLANISHIGA JINSIY OMILLARNING TA‘SIRI:
ERTAK TERAPIYA ORQALI TAHLIL QILISH**

Qo‘chqarova O‘g‘iljon Umar qizi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumani

3-sonli umumta‘lim maktab maxsus pedagogi

O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ogiljonqochqarova888@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi aqli zaif qiz bolalar va aqli zaif o‘g‘il bolalarning xotira xususiyatlariga, ayniqsa so‘z xotirasiga jins omillarining ta‘sir korsatishi, bolalarning psixologik rivojlanishida jinsiyatning ahamiyati va tekshirish davomida natijalarning farqlanishlari ilmiy asosda tushuntirib beriladi va tahlil qilinadi.

***Kalit so‘zlar:** aqli zaif bolalar, xotira jarayoni, jinsiyat, bosh miya yarimsharlari, nutq, diqqat, maxsus ta‘lim, muloqot, ertak terapiya.*

**THE INFLUENCE OF SEXUAL FACTORS ON THE DEVELOPMENT
OF WORD MEMORY IN MENTALLY RETARDED CHILDREN DURING
PRESCHOOL AGE: ANALYSIS THROUGH FAIRY-TALE THERAPY**

Kochkarova Ugiljon Umarovna

Special pedagogue of General Education School No. 3 of Fourkolsky District of
the Republic of Karakalpakstan

Independent researcher of the National Pedagogical University of Uzbekistan

ogiljonqochqarova888@gmail.com

ANNOTATION

This article explains and analyzes on a scientific basis the influence of gender factors on the memory characteristics of pre-school mentally retarded girls and mentally retarded boys, especially in the memory of the word, the importance of sex in the psychological development of children and differences in results during the examination.

***Keywords:** mentally retarded children, memory process, sex, cranial hemispheres, speech, attention, special education, communication, fairy tale therapy*

ВЛИЯНИЕ СЕКСУАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ НА РАЗВИТИЕ СЛОВЕСНОЙ ПАМЯТИ У УМСТВЕННО ОТСТАЛЫХ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА: АНАЛИЗ С ПОМОЩЬЮ СКАЗКОТЕРАПИИ

Кучкарова Огилжон Умар кызы

Специальный педагог общеобразовательной школы № 3 Туркульского
района Республики Каракалпакстан

Независимый исследователь Национального педагогического университета
Узбекистана

ogiljonqochqarova888@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В этой статье на научной основе объясняется и анализируется влияние гендерных факторов на особенности памяти девочек с умственной отсталостью дошкольного возраста и мальчиков с умственной отсталостью, особенно на запоминание слов, важность пола в психологическом развитии детей и различия в результатах при обследовании.

***Ключевые слова:** умственно отсталые дети, процесс запоминания, пол, полушария головного мозга, речь, внимание, специальное образование, общение, сказкотерапия.*

KIRISH

Alohida yordamga muhtoj bolalar jumladan aqli zaif bolalarga o'quv tarbiya jarayonlarini samarali olib borish, korreksiyalashga yo'naltirilgan pedagogik vositalardan to'g'ri foydalanish, aqli zaif bolalarning bilish faoliyatini va hissiy-irodaviy doiralari, individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik ta'sirning samarali metodlarini va usullarini qo'llay olish uchun aqli zaif bolalarning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, va klinik ko'rinishlarini tahlil qilishimiz zarur. Rivojlanishdagi muammolarni aniqlashda ontogenez bosqichi muhim o'rin tutadi, ya'ni homilalik davridan boshlab bolaning rivojlanishiga qaysi omillar bevosita va bilvosita ta'sir qilishini o'rganish zarur. Zamonaviy tibbiyot va psixologiyada bugungi kunda olimlar maxsus pedagogika uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etmoqdalar, jumladan bolaning homilalik davridan boshlab o'rganilishi shular sirasiga kiradi. Biz hozir buni bir necha bosqichda tushuntirishga harakat qilamiz. O'tgan ilmiy maqolalarda biz maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning xotira xususiyatlarini tahlil qilgan edik, xotirani rivojlantiruvchi omillarni xususan ertak terapiyaning ahamiyati haqida suhbatlashdik. Tadqiqotni o'rganish va

eksperimentlarni olib borish davomida bizni bir savol qiziqirdi, deylik har yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari bo'lganidek, har yosh davrining rivojlanish dinamikasi bo'lganidek bolalarning rivojlanishiga jinsiy omillar ham ta'sir etishi mumkinmi? Ya'ni maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni xotira jarayonini rivojlantirishda yoki umuman ularning ijtimoiy pedagogik holatini yaxshilashda jinsiyat qanchalik ahamiyatli?

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Dastlabki tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bir xil tashxisga ega bo'lgan aqli zaif bolalar orasida so'z xotirasini eslab qolish darajasida jinsiy farqlar kuzatilgan. Jumladan, qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan so'zli materialni eslab qolishda nisbatan yuqoriroq natija ko'rsatganlar. Ushbu holatni bir qator ilmiy-nazariy omillar bilan asoslab berish mumkin.

Birinchidan, A.R. Luriya o'z asarlarida neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qiz bolalarda nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lgan chap miya yarim sharining funksional yetilishi o'g'il bolalarga nisbatan erta va barqarorroq kechishi haqida so'zlab o'tadi. So'z xotirasi aynan nutq mexanizmlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, intellektual nuqson sharoitida ham qiz bolalarda ushbu funksiyaning o'g'il bolalarga nisbatan yaxshiroq saqlanganligi kuzatiladi.

Ikkinchidan, L.S. Vigotskiy o'z tahlillarida, xotiraning rivojlanishi nutqning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Maktabgacha yosh davrida qiz bolalarda so'z boyligi, grammatik tuzilma va og'zaki muloqot faolligi o'g'il bolalarga qaraganda nisbatan yuqori bo'ladi va aqli zaif bolalarda nutq rivojlanishidagi ushbu ustunlik so'z xotirasining samaraliroq shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ixtiyoriy diqqatning rivojlanish darajasi ham xotira natijalariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, qiz bolalarda ixtiyoriy diqqatning barqarorligi va topshiriqqa yo'naltirilganligi erta yoshdan shakllanadi. O'g'il bolalarda esa impulsivlik va chalg'uvchanlik diqqat tarqoqligi ko'proq uchraydi. Natijada so'z xotirasini tekshirish jarayonida qiz bolalar topshiriqni yaxshiroq anglab, uni izchil va samarali bajaradilar.

To'rtinchidan, ijtimoiy-pedagogik omillar ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tadqiqotchilar M.S. Pevzner nazariy qarashlariga ko'ra, kattalar tomonidan qiz bolalar bilan ko'proq og'zaki muloqot qilinishi, savol-javoblar va suhbatlarga faolroq jalb etilishi ularning nutq va xotira jarayonini rivojlantiradi. Bu holat ayniqsa, maxsus ta'lim berish davomida yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuningdek, defektologik nuqtai nazardan qaralganda, aqli zaif qiz bolalarda kompensator mexanizmlar, ya'ni nutq orqali kamchiliklarni qoplash imkoniyatlari

o'g'il bolalarga nisbatan nisbatan yaxshiroq shakllangan bo'ladi. O'g'il bolalarda esa ko'proq predmetli-amaliy va harakatga asoslangan faoliyatlar ustunlik qiladi, bu esa so'z xotirasi topshiriqlarida nisbatan past natijalarga olib keladi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Cambridge universiteti olimlari boshchiligida olib borilgan tadqiqot (≈ 5000 nafar maktabgacha yoshdagi bolalar) natijalariga ko'ra, ushbu yosh davrida xotiraning umumiy rivojlanish darajasida emas, balki uning turlari bo'yicha jinsga xos farqlar aniqlangan. Jumladan, qiz bolalarda verbal va emotsional xotira, o'g'il bolalarda esa vizual-fazoviy va harakatga oid xotira nisbatan ustun rivojlangan.

Biz ushbu tadqiqotdan kelib chiqib, maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotining F 70 shifrlil yengil darajada aqliy buzilishi bo'lgan bolalar bilan o'tkazishga qaror qildik va metodikani ularning individual salohiyatiga mos ravishda qayta ishlab chiqdik.

Tadqiqotning maqsadi: maktabgacha yoshdagi yengil darajali aqli zaif bolalarda xotira turlarining (verbal, vizual-fazoviy va harakat xotirasi) rivojlanish darajasini aniqlash hamda ularning jinsga bog'liq farqlarini tajriba asosida tahlil qilish.

Tadqiqotning vazifalari: maktabgacha yoshdagi yengil darajali aqli zaif bolalarda xotiraning asosiy turlarini aniqlash va ularning rivojlanish zonalarini bilish, qiz va o'g'il bolalar xotira ko'rsatkichlarini taqqoslash, xotira turlari bo'yicha ustun va nisbatan sust jihatlarni aniqlash, pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti: Metodikani sinab ko'rish uchun 5-6 yoshdagi Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar 3-sonli KTIDMTT tarbiyalanuvchilari olindi. Tajribamizda tashkilotning katta va tayyorlov guruhidagi bir xil F 70 tashxisli 10 nafar qiz bola va 10 nafar o'g'il bola ishtirok etdi.

Predmet: maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira turlarining jinsga bog'liq rivojlanish xususiyatlari

Tadqiqot ishtirokchilari (tanlama)

Umumiy soni: 20 nafar bola

Yosh: 5-6 yosh

Jinsiy tarkib:

10 nafar qiz bola

10 nafar o'g'il bola

Tanlash mezonlari:

- Bir xil darajali F 70 tashxisli aqli zaif bolalar
- nutqi rivojlangan
- maktabgacha ta'lim tashkilotiga muntazam qatnaydigan

Tadqiqot metodlari:

- Psixologik testlar

- Kuzatish

- Suhbat

- Statistik tahlil

1-topshiriq: Verbal (soʻzli) xotirani aniqlash

Bolaga 10 ta tanish soʻz (olma, kitob, qush, mashina, quyosh, koʻylak, gul, kuchuk, piyola, eshik) aytiladi

2–3 daqiqa chalgʻituvchi faoliyat (rasm chizish)

Soʻng soʻzlarni yana bir marta qayta aytib beramiz, biror harakatli mashq bajaramiz, masalan ikki marta qarsak chalib joyimizda aylanamiz. Oxirgi bosqichda bolalardan soʻzlarni qayta aytib berish soʻraladi.

Baholash:

6–10 soʻz → yuqori daraja

4–5 soʻz → oʻrta daraja

0–3 soʻz → past daraja

2-topshiriq: Vizual-fazoviy xotirani aniqlash

Metodika:

6–8 ta geometrik shakl yoki rasm 1 daqiqa davomida koʻrsatiladi, soʻng yashiriladi va boshqa rasm va shakllarga aralashtirilib qayta koʻrsatiladi.

Bolalar dastlab koʻrsatilgan 10 ta rasmlarni qayta joylashtirib orasidan saralab berishi soʻraladi.

Baholash:


6–10 rasm → yuqori daraja

4–5 soʻz → oʻrta daraja


0–3 soʻz → past daraja

NATIJALARNI HISOBLASH:

Verbal xotira natijalariga koʻra qiz bolalar soʻz va hikoya mazmunini tezroq va izchilroq qayta esga tushirgan. Bu ustunlik nutq rivojlanishi va ijtimoiy muloqotning erta faollashuvi bilan izohlanadi. Verbal (soʻz) xotira boʻyicha qiz bolalarning nisbiy ustunligi maktabgacha yoshdayoq shakllanib, til va muloqotga asoslangan faoliyat bilan mustahkamlanadi.



Vizual–fazoviy xotira natijalari o‘g‘il bolalar shakl va joylashuvni eslab qolishda aniqroq va barqarorroq ekanini ko‘rsatdi. Bu o‘yin, konstruktor va harakatli faoliyat bilan bog‘liq ekanligidan dalolat beradi. Vizual–fazoviy xotira bo‘yicha aniqlangan ustunlik o‘g‘il bolalarning fazoviy tafakkuri va motor faoliyat bilan bog‘liq xotira mexanizmlarining ham faol rivojlanishi bilan izohlanadi.



Natijalarga ko‘ra qizlar so‘zlarni tezroq eslab qolgan, o‘g‘il bolalar esa asosiy faktlarni eslagan, lekin tafsilot va izchillik kamroq bo‘lgan. Bu verbal xotira va nutq bilan bog‘liq ustunlik qizlarda ertaroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Qiz bolalar 70%, o‘g‘il bolalar 60% natija qayd etgan.

Vizual–fazoviy xotira testi bo‘yicha o‘g‘il bolalar joylashuvni aniqroq shakllar o‘rtasidagi masofani yaxshiroq eslab qolgan, qizlar esa aniqlik biroz pastroq lekin rang va detallarni yaxshiroq eslab qolgan, bu fazoviy xotira bo‘yicha o‘g‘il bolalarning nisbiy ustunligini ko‘rsatadi. Qiz bolalar 55%, o‘g‘il bolalar 70% natija qayd etgan.

XULOSA

O‘tkazilgan tajriba natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira turlarining rivojlanishi jinsga bog‘liq holda farqlanishini ko‘rsatdi. Qiz bolalarda so‘zli xotira, o‘g‘il bolalarda esa vizual-fazoviy va harakatga oid xotira nisbatan ustun rivojlanganligi aniqlandi. Bunga asosiy sabab qilib biologik omilni ham olsak bo‘ladi. Ya‘ni qizlarda chap yarim shar (nutq markazi) erta faollashadi, o‘g‘il bolalarda o‘ng yarim shar (fazoviy va motor markazlar) ustunroq ishlaydi. Ijtimoiy munosabatlar ham xotiraning rivojlanishiga bevosita ta‘sir qiladi. Qizlar bilan ko‘proq suhbatlar olib boriladi, savol-javob qilinadi, hikoyalar aytiladi. O‘g‘il bolalar bilan esa ko‘proq harakatli va predmetli o‘yinlar o‘ynaladi. Kembrich universiteti tadqiqotchi olimlari buni biologiya va muhit uyg‘unligi deb talqin qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Carretti, B., Giofrè, D., Mammarella, I. C., & Cornoldi, C. (2022). The structure of working memory in children from 3 to 8 years old. *Journal of Experimental Child Psychology*, 215, 105310.
2. Ibbotson, P & Roque-Gutierrez, E. (2023). Sex differences in working memory accuracy and reaction times in 6–7-year-old children. *Journal of Cognition and Development*, 24(2), 167–183.
3. Fivush, R., Haden, C. A., & Reese, E. (2006). Elaborating on elaborations: Role of maternal reminiscing style in cognitive and socioemotional development. *Child Development*, 77(6), 1568–1588.
4. Feldstein, S. (1976). Social memory in preschool children. *Journal of Genetic Psychology*, 128(2), 191–198.
5. Giofrè, D., Donolato, E., & Mammarella, I. C. (2022). The differential role of verbal and visuospatial working memory in children’s learning. *Learning and Individual Differences*, 96, 102141.

6. Palejwala, M. H., & Fine, J. G. (2015). Gender differences in latent cognitive abilities in children aged 2 to 7. *Intelligence*, 48, 96–108.
7. Maxamatova, D. O. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishidagi gender farqlar. *Educational ResearCh in Universal Sciences*, 1(2), 21–24.
8. Jo‘rayeva, N., & Kamalova, S. (2025). Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda diqqat va xotirani rivojlantirish metodlari. *Maktabgacha va maktab ta‘limi jurnali*, 3(9).
9. Fayziyeva, N., & Turobova, M. (2025). Bolalarda xotira va diqqatni rivojlantirishning psixologik asoslari. *Maktabgacha va maktab ta‘limi jurnali*, 3(4).
10. Kalkonova, L. (2025). Maktabgacha tarbiya yoshida xotira rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. *Tamaddun Nuri*, 6(69), 64–67.
11. Akramova, X. (2022). Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bolalarning xotira xususiyatlari. *Pedagogika va psixologiya*, 4, 112–118.